

**MOTIVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING
AUDITIV KOMPETENTSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: XORIJ
TAJRIBASI**

Shamilova Munira

Guliston davlat universiteti

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada motivatsion yondashuv asosida talabalarning auditiv kompetentsiyalarini takomillashtirish masalasi yoritilgan. XXI asrda chet tillarini o'qitish jarayonida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Auditiv kompetentsiya chet tilini o'rganish jarayonida muhim tarkibiy qism sifatida qaralib, talabalarning eshitish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyalar tahlil qilinadi. Xorijiy tajribaga asoslanib, individualizatsiya, kontekstga asoslangan o'qitish, interfaol mashg'ulotlar, texnologik vositalardan foydalanish kabi yondashuvlarning samaradorligi o'rganiladi. J. Richardsning mikroko'nikmalar tasnifi asosida auditiv kompetentsiyalarni rivojlantirishning ilmiy metodlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari chet tili ta'limida innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi.*

XXI asrda chet tillarini o'qitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, auditiv kompetentsiya chet tilini o'rganish jarayonida asosiy tarkibiy qismlardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar (Azimov, Shchukin, 2009, 25-bet) auditiv ko'nikmani "nutq oqimidagi alohida tovushlar va tovush majmualarini, shu jumladan, turli intonatsion konstruksiyalarni tanish va ajratishni avtomatizm darajasiga olib chiqilgan nutqiy operatsiya" sifatida ta'riflaydilar. An'anaviy yondashuvga ko'ra, auditiv ko'nikmalar uch asosiy guruhga bo'linadi: leksik, grammatik va nutqning tovush tomonini ongsiz qabul qilish va farqlash ko'nikmalari (Passov, 1977 187-bet). Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonida muhim bo'lsa-da, zamonaviy motivatsion yondashuv asosida ularning samaradorligini oshirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Motivatsion yondashuv - talabalarning chet tilida tinglash va tushunish kompetentsiyalarini oshirishda asosiy omillardan biri sifatida qoraladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, talabalarning chet tilida tinglash orqali tushunish qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi tamoyillar muhim rol o'ynaydi:

1. **Individualizatsiya va differensial yondashuv** – Talabalar turli auditiv materiallardan foydalanish orqali individual ehtiyojlariga mos materiallar bilan ta'minlanadi. Shuningdek, tinglash qiyinligi darajasiga moslashtirilgan vazifalar orqali talabalar auditiv kompetensiyasi bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

2. **Kontekstga asoslangan o'qitish** – Talabalar o'z mutaxassislik sohalari bilan bog'liq real hayotiy matnlarni tinglash orqali tahlil qilishga o'rgatiladi. Bu esa ularning chet tilidagi matnlarni tushunish malakasini oshirishga xizmat qiladi.

3. **Interfaol mashg'ulotlar va reflektiv o'rganish** – Talabalarning eshitish orqali qabul qilingan axborot ustida tahliliy fikr yuritishi va baholash imkoniyati yaratiladi. Bu esa ularning auditiv kompetensiyasini chuqur shakllantirishga yordam beradi.

4. **Texnologik Vositalardan Foydalanish** – Zamonaviy ta'limda raqamli platformalar va multimedia materiallaridan foydalanish talabalar uchun yanada samarali o'quv muhitini yaratadi. Masalan, podkastlar, interfaol videolar, subtitrlar filmlar va onlayn seminarlar eshitish malakasini rivojlantirish uchun muhim resurslar hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda auditiv kompetensiyani rivojlantirishda turli innovatsion usullar keng qo'llaniladi. Masalan AQSh va Buyuk Britaniyada interfaol audio-kurslar va immersiv metodlar orqali talabalar real nutq sharoitlariga oshlashtiriladi. Germaniyda kommunikativ til o'rgatish metodikasi asosida autentik materiallar, jumladan, radio va podkastlardan foydalaniladi. Finlandiyada talabalar uchun ko'pkanallik (multimodal) o'qitish tizimi joriy qilinib, turli eshitish materiallari va vizual kontekst uyg'unligi ta'minlanadi.

Talabalarning auditiv kompetentsiyalarini rivojlantirish chet tilini o'zlashtirish jarayonida muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu kompetentsiyalar chet tilidagi nutqni eshitish orqali tushunish va uni kommunikativ niyatni amalga oshirishda

samarali qo'llash imkonini beruvchi lingvistik va psixologik jihatlar majmuasini o'z ichiga oladi. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan auditiv ko'nikmalar quyidagi omillarga asoslangan holda tasniflanadi:

Tilni bilish darajasi	tinglovchining lingvistik bilimlari va uni real nutqiy sharoitlarda qo'llash qobiliyati
Eshitilgan matnni tushunish darajasi	matnning semantik va pragmatik jihatdan anglanish bosqichi.
Eshitish turi	intensiv va ekstensiv tinglash strategiyalaridan foydalanish.
Eshitilgan matn turi	monologik, dialogik va polilogik matnlarni eshitish va tushunish.
Tinglovchi rolining matnni tushunish jarayonidagi o'rni	faol va passiv tinglov strategiyalarini qo'llash.

J. Richards (Richards, 1991, 198–199-betlar) tomonidan tinglash mikroko'nikmalarining keng qamrovli tasnifi ishlab chiqilgan bo'lib, umumiy tinglashga oid 33 mikroko'nikma va mavzuli ma'ruzalarni tinglashda qo'llaniladigan 19 mikroko'nikmani o'z ichiga oladi. Ushbu mikroko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Alohida fonemalarni farqlash va fonologik moslashuv mexanizmlarini qo'llash.
- So'z urg'usi va ritmik modelni tanib olish orqali matnning strukturasini tushunish.
- Nutq jarayonida urg'u va intonatsiya vositalarini semantik tushunish uchun qo'llash.
- So'zlarning qisqartirilgan shakllarini anglash va kontekstual tahlil qilish.
- Sintaktik tuzilmalarning semantik yuklamasini aniqlash va ulardan to'g'ri foydalanish.

- Kontekst asosida asosiy leksik birliklarni ajratib olish va ulardan muloqot jarayonida foydalanish.
- Asosiy va ikkinchi darajali axborotni ajratish orqali matn mazmunini samarali tahlil qilish.
- Pragmatik kontekstda gapning kommunikativ funksiyasini aniqlash va mos javobni shakllantirish.
- Audiomatnda tasvirlangan voqealar orasidagi sababiy bog‘liqlikni tushunish va oldindan bashorat qilish.

Motivatsion yondashuv asosida auditiv kompetentsiyalarni rivojlantirishda talabalarning qiziqishini oshirish va ularni faol o‘rganishga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, **Autentik materiallardan foydalanish** – talabalarning haqiqiy kommunikativ muhitga moslashuvini ta‘minlaydi. **Ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga asoslangan mashg‘ulotlar** – multimediya vositalaridan foydalangan holda interaktiv tinglash mashqlarini tashkil qilish imkonini beradi. **Differensial yondashuv** – talabalar ehtiyojlari va individual qobiliyatlariga mos ravishda tinglash materiallarini tanlaydi. **Refleksiv tahlil usullari** – tinglovchilarning o‘z eshitish ko‘nikmalarini baholashi va takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqadi. **O‘zaro hamkorlik** – juftlik va guruh ishlari orqali talabalarning fikr almashish va muhokama qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ushbu metodlar auditiv kompetentsiyalarni rivojlantirishda samararli natija beradi. Motivatsion yondashuv asosida talabalarning auditiv kompetentsiyalarini takomillashtirish bo‘yicha J. Richardsning tasnifidan olingan mikroko‘nikmalarni ilmiy yondashuv asosida moslashtirish va izohlash mumkin. J. Richardsning mikroko‘nikmalar tasnifi talabalarning auditiv kompetentsiyalarini rivojlantirishda kognitiv, lingvistik va motivatsion jihatlarni qamrab oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azimov, E. G., & Shchukin, A. N. (2009). Novyy slovar metodicheskikh terminov i ponyatiy. Moskva: IKAR.
2. Passov, E. I. (1977). Osnovy metodiki obucheniya inostrannym yazykam. Moskva: Prosveshchenie.

3. Richards, J. C. (1991). Listening Comprehension: Approach, Design, and Procedure. Cambridge University Press.
4. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
5. Vandergrift, L., & Goh, C. C. (2012). Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action. Routledge.
6. Field, J. (2008). Listening in the Language Classroom. Cambridge University Press.
7. Rost, M. (2011). Teaching and Researching Listening. Pearson Education.
8. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. Routledge.
9. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
10. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.